



KO'P TILLIK KOMPETENSIYA VA UNING MAZMUNI

Isanova Z.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tayanch so'zlar: kommunikativ kompetensiya, plurilingval kompetensiya, ko'p madaniyatli(pluricultural) kompetensiya, ko'p tillilik, plurilingvalizm, qisman kompetensiyalar (partial competence), CEFR.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, плюрилингвальная компетенция, плурикультурная компетенция, многоязычие, плюрилингвизм, частичная компетенция (partial competence), CEFR.

Key words: communicative competence, plurilingual competence, pluricultural competence, multilingualism, plurilingualism, partial competence, CEFR.

Kirish. Chomskiyning ideal so'zlovchining lingvistik kompetensiyalari to'g'risidagi tadqiqotiga javoban D. Xayms kommunikativ kompetensiya tushunchasini taqdim etdi[1,2]. Bu tushuncha shaxsni ijtimoiy kontekstda tildan foydalanish qobiliyatini anglatib, Chomskiy taqdim etgan tilning (strukturasining) qat'iy bir tilli modeli qilib olingan nazariyasining aksi edi.

Xaymsning ushbu kommunikativ kompetensiya tushunchasi birinchi, ikkinchi va xorijiy tillarga bo'lmasdan ko'p tillilikni o'z ichiga olgan. Ushbu tushunchasi ijtimoiy aktyorga alohida e'tibor qaratdi, til boyligini boshqarish, undan foydalangan holda yaratish, izlanish va muayyan madaniy muhitda muloqot qilishni o'z ichiga oldi.

Kanale va Svainlar kommunikativ kompetensiyani ikkinchi tilni o'zlashtirishda ishlatilishini ta'kidlab, ushbu tushunchani uchga ya'ni grammatik, sotsiolingvistik va strategik sub kompetensiyalarga bo'lishdi[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). XX asrning 80-yillaridan boshlab ko'p tillilik tushunchasiga yangicha qarash kirib keldi. Yevropa Kengashi individual ko'p tillilik tushunchasini ilgari so'rdi. Yevropa Ittifoqi ko'p tillilik (multilingvalizm) tushunchasini ona tilidan tashqari Yevropa Ittifoqining kamida ikkita tiliga egalik qilish sifatida bildi va til ta'limiga oid hujjatlar bilan tasdiqlangan norma deb hisobladi.

Kiyinchalik til o'rganish, o'qitish va sinovdan o'tkazish bo'yicha umumiy Evropa asoslari(CEFR)da bir nechta tillarda turli xil ko'nikmalarga ega ko'p tili shaxs g'oyasini o'z ichiga olgan plurilingvalizm atamasi ishlatildi.

CEFRda ko'p tillik tushunchasini shaxsning turli tillarda o'zgaruvchan hamda qisman kompetensiya tushunchalarni o'z ichiga oldi. Ushbu jihat bilan Xaymsning kommunikativ kompetensiyasiga o'xshash. CEFRda turli tillarda(birinchi, ikkinchi yoki uchinchi tillarda) turli xil kompetensiyalar shaxsning lingvistik reperturi deb tariflangan va plurilingval kompetensiya umumiy til repertuaridan tizimli va tartibli foydalanishga hamda o'zaro tushunish imkonini berishi ta'kidlangan.

Plurilingval va ko'p madaniyatli(pluricultural) kompetensiya UNESCO tomonidan ham qo'llab quvvatlandi

Yevropa Kengashi ko'p tillilikka nisbatan o'zining yondashuvini ishlab chiqdi, bu nafaqat hujjatlashtirilgan rasmiy ta'lim tashkilotlarida balki shaxsning butun til tajribasini ko'p tili (plurilingval) kompetensiyaga kiritishga asoslandi.

Plurilingvalizm va plurilingval kompetensiya to'g'risida D.Koste, D.Mur, G.Zarate, E.Pikardo, A.Galante kabilar tadqiqot olib borishdi[4,5,6].

Plurilingvalizm multilingvalizmdan farqlanishini ta'kidlashadi(A.Galante, D.Coste)

Tadqiqot metodologiyasi. Plurilingvalizm insonning til tajribasini ona tilidan boshqa tillarga o'tishini va tillar va madaniyatlar ajratilgan aqliy bo'limlarda saqlanmasligini aksincha tillar o'zaro aloqada bo'lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishi ta'kidlanadi[7]. Samarali muloqot qilish uchun plurilingval kompetensiyaning turli qismlardan vaziyatga mos ravishda foydalanishi mumkin.

Pikardo plurilingvalizmni ko'p tili jamiyatga nisbatan ishlatadi A.Galante faqat individualga qaratadi va ko'p tili jamiyatga nisbatan multilingvalizmni ishlatadi.

Plurilingvalizm shaxs repertuarida tillar va til variantlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu multilingvalizm va til uzatishga (translanguaging) o'xshaydi; ammo uchta asosiy farq mavjud. Birinchisi, plurilingvalizm hayotiy tajriba orqali egallangan madaniy bilimlarni nazarda tutuvchi ko'p madaniyat(pluriculturalism) ni o'z ichiga oladi[4]. Ikkinchi farqi turli tillar, shevalalar va madaniyatlarda muvozanatsiz bo'lgan qisman kompetensiyalar (partial competence)[8].

D.Coste, D. Moore va G. Zaratelar: "Qisman kompetensiyalar til nutq faoliyati(yozma yoki of ogzaki) hamda nolingvistik bilimlarga(boshqa madaniyatlar va jamoalarning xususiyatlari) bog'liq bo'lish mumkin" deb hisoblashadi[7].



Uchinchi farq bu CEFRda keltirilgan “Moslashuvchanlikni bildiruvchi agent til foydalanuvchilari tayanishi mumkin bo‘lgan lingvistik va madaniy bilimlardan qisman bo‘lsa ham foydalanish”[8].

Plurilingval kompetentsiya shaxsning ko‘p tillarda samarali muloqot qilish va o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyatini, shuningdek, turli madaniy nuqtai nazarlarni tushunish va hurmat qilishni anglatadi. Olimlar va tadqiqotchilar ko‘p tilli kompetensiyaga turli xil ta‘riflar berib, uning ko‘p qirraliligi va globallashgan dunyoda ahamiyatini ta‘kidlaganlar. Olimlar tomonidan berilgan bir nechta ta‘riflar:

1-jadval

Plurilingval kompetensiyaga berilgan ta‘riflar

Tadqiqotchilar	Ta‘riflari
Council of Europe	Plurilingval kompetentsiya - bu tillardan muloqot maqsadlarida foydalanish va madaniyatlararo o‘zaro ta‘sirida ishtirok etish qobiliyati, bunda ijtimoiy agent sifatida qaraladigan shaxs turli darajadagi, bir nechta tillarni bilishi va bir nechta madaniyatlar tajribasiga ega. Bu alohida kompetensiyalarning superpozitsiyasi yoki yonma-yon qo‘shilishi sifatida emas, balki foydalanuvchi jalb qilishi mumkin bo‘lgan murakkab yoki hatto kompozitsion kompetensiyaning mavjudligi sifatida qaraladi[7].
E. Pikardo	Plurilingualism shaxs so‘zlashadigan tillar o‘rtasidagi munosabatlarga, asosiy lingvistik mexanizmlar va madaniy konnotatsiyalarga, shaxsiy lingvistik va madaniy traektoriyaga, shuningdek, insonning til xilma-xilligiga munosabatiga e‘tibor qaratadi, ochiqlik, qiziquvchanlik va moslashuvchanlikni ta‘kidlaydi[9].
Beacco, Jean-Claude	Plurilingval kompetentsiya til va madaniy resurslarning ko‘p repertuaridan muloqot ehtiyojlarini qondirish yoki boshqa kelib chiqishi va kontekstdagi odamlar bilan muloqot qilish va shu bilan birga repertuarni boyitish qobiliyati sifatida aniqlanadi. Repertuar alohida o‘quvchilar o‘zlari bilgan yoki o‘rgangan barcha tillarda egallagan hamda shu tillar bilan bog‘liq madaniyatlarga tegishli manbalardan iborat. Plurilingvalizm o‘rganilayotgan har bir alohida tilni emas, balki o‘quvchilar va ularning individual ko‘p tilli repertuarini rivojlantirishga qaratilgan[10].

Ko'p tillilik insonning muloqot va ifoda uchun bir nechta til va til variantlaridan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Bu uch yoki undan ortiq tillardan foydalanishni o'z ichiga olishni nazarda tutib ikki tillilikdan farq qiladi.

Olimlar plurilingval kompetentsiyani har bir tilning grammatika, lug'at va madaniy jihatlarini bilishni o'z ichiga olgan bir nechta tillarda samarali muloqot qilish qobiliyatini anglatishini ta'kidlaydi. Bu faqat til ko'nikmalarinigina emas, balki madaniyatlararo kompetentsiyani va kontekstga qarab tillar o'rtasida almashish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Bizning ta'rifimizcha plurilingval kompetensiya bu shaxsning umumiy til tajribasiga va madaniyatlararo tushunish qobiliyatiga tayangan holda turli soha hamda vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatidir.

CEFRda belgilangan deskriptorlarni tahlil qilib ko'rilganda plurilingval kompetensiyaning uchta qismida ham A1dan oldingi darajada tavsiflovchilar berilmagan. Qolgan barcha darajalarda tavsiflovchilarning bo'lishiga qaramasdan, plurilingval tushunishning C1 va C2 darajalari mavjud emas.

Plurilingval repertuaga asoslanishda A1 darjadan to B1 darajagacha ko'p tilli repertuarda turli tillarda cheklangan repertuaridan cheklangan holda foydalanishdan to ijodiy foydalanishgacha uzgarishini ko'ramiz. B2 darajada esa zarur paytda suhbatdoshga tushuntirib, muhokama qilinayotgan vaziyat/konseptiga mos kelgan, ko'p tilli repertuaridagi boshqa tildagi iborani nutqqa qirita olsa C1 darajada ko'p tilli repertuada boshqa tildagi suxbatdoshlarga tanish mavzularda maxsus atamalardan ko'proq foydalanadi va tushuntira olishligi belgilangan. C2 darajada ham lingvistik kompetensiyaning leksik kompetensiyasiga tayanishini ko'rish mumkin, bunda ko'p tilli repertuaridagi tillarda metafora va boshqa nutq shakllari o'rtasida o'xshashlik va farqlarni o'rgana olishligi ta'kidlangan. Boshlang'ich uch darjadan farqli ularoq yuqori uchta darajada ko'p tilli repertuaridagi tillarni samarali almashtira olishi belgilangan.

Plurilingval tushunish tushunishda ham aynan leksik kompetensiyaga tayanish yaqqol kuzga tashlanadi, A1 darajada turli tillar uchun umumiy bo'lgan internatsionalizm va so'z/belgilarni (masalan haus/hus/house) taniy olinishi va B1 darajada turli tillarda bir xil so'z, belgilarning bir xil qo'llanilishi va soxta do'stlar o'rtasidagi farqni aniqlash uchun, tushunchalarining ifodalanishi o'rtasidagi o'xshashlik va qarama-qarshiliklarni aniqlay olishi belgilab quyilgan. Bundan tashqari grammatik va stilistik janr konvensiyalari haqidagi bilimlaridan o'z manfaati uchun foydalana olishi ham aytib o'tilgan.

Ko'p madaniyatli(plurilingval) repertuaga asoslanishning barcha darajalarida asosan madaniy repertuariga kiruvchi turli madaniyatlarni tushunish va qadrlashni kengaytirish va boyitish jarayoni tushunish va yanada keng qamrovli va qamrab oluvchi dunyoqarashni rivojlantirish uchun turli xil madaniy an'analar, qadriyatlar va amaliyotlar bilan faol muloqot qilish ta'kidlangan.



CEFRda ko‘p tilli tushunish uchun deskriptorlar shaxsning o‘z repertuaridagi bir nechta tillarni tushunish va ular bilan muloqot qilish qobiliyatiga qaratilgan. Ko‘p tilli tushunishda, o‘z repertuaridagi tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni tan oladi va tushuna olishi, bilim va ko‘nikmalarni bir tildan boshqa tilga o‘tkazish, tushunishni kuchaytirish uchun tillar o‘rtasida aloqa o‘rnatish tushuniladi. Turli tillardagi so‘zlashuvchilar bilan mazmunli muloqotda bo‘lish uchun bir nechta tillardagi bilimlaridan foydalanishi va va ko‘p tilli muhitda muloqotni boshqara olishi nazarda tutadi.

Ko‘p tilli vositachilikda turli tillarda so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi muloqotni osonlashtirib, tillar o‘rtasida vositachi bo‘la olishi hamda muloqot bo‘shliqlarini bartaraf etish va ko‘p tilli kontekstlarda tushunishni osonlashtirish uchun o‘zlarining lingvistik manbalaridan foydalanishlari mumkinligi tushuniladi.

Ushbu tavsiflovchilar plurilingval ko‘nikmalarni takomillashtirish muhimligini ta’kidlaydi, bu odamlarga o‘z repertuaridagi bir nechta tillarni samarali tushunish va ular bilan muloqot qilish imkonini beradi. Tillar o‘rtasidagi aloqalarni tan olish va ulardan foydalanish orqali odamlar o‘zlarining umumiy til bilimlarini va turli lingvistik kontekstlarda muloqot qobiliyatlarini oshirishlari mumkin.

Tahlil va natijalar. Olimlar bugungi bir-biriga bog‘langan dunyoda plurilingval kompetentsiyani rivojlantirish muhimligini ta’kidladilar, bu erda odamlardan til va madaniy chegaralar bo‘ylab muloqot qilish talab etiladi.

Plurilingval kompetentsiyaning asosiy jihatlaridan biri bu turli madaniy kontekstlarni tushunish va boshqarish qobiliyatidir. Bu nafaqat bir nechta tillarda gaplasha olish, balki har bir til bilan bog‘liq madaniy o‘ziga xosliklar, ijtimoiy konvensiyalar va muloqot uslublarini chuqur tushunishni o‘z ichiga oladi. Ko‘p tilli kompetentsiyani rivojlantirish orqali shaxslar kuchliroq munosabatlar o‘rnatishlari, o‘zaro tushunishni rivojlantirishlari va turli muhitlarda samaraliroq harakat qilishlari mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, plurilingval kompetentsiya kognitiv imtiyozlar bilan chambarchas bog‘liq, masalan, muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilash, ijodkorlikni oshirish va kognitiv moslashuvchanlikni oshirish. Plurilingval shaxslar ko‘pincha ochiq fikrli, empatik va turli madaniy nuqtai nazarlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishadi, bu esa ko‘p madaniyatli muhitda yanada samarali muloqot va hamkorlikka olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, olimlar innovatsion tillarni o‘qitish usullari va o‘quv dasturlari orqali plurilingval kompetentsiyani rivojlantirish uchun ta’lim tizimlari zarurligini ta’kidladilar. Til ta’limiga ko‘p tilli yondashuvni kiritish orqali o‘quvchilar bir nechta tillarda va madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishlari mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, plurilingval kompetentsiya tushunchasi tobora globallashtirib borayotgan dunyoda gullab-yashnash uchun ko‘p tillar va madaniyatlarni chuqur tushunishni rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydi.



Ushbu kompetentsiyani rivojlantirish orqali odamlar o'zlarining muloqot qobiliyatlarini oshirishlari, madaniy xabardorliklarini kengaytirishlari va yanada inklyuziv va o'zaro bog'langan jamiyatlarni qurishga hissa qo'shishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – MIT press, 2014. – №. 11.
2. Hymes D. et al. On communicative competence //sociolinguistics. – 1972. – T. 269293. – C. 269-293.
3. Canale, Michael and Merrill Swain (1980) “Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing”. Applied Linguistics 1, 1, 1–147.
4. Coste D., Moore D., Zarate G. Plurilingual and pluricultural competence //Language Policy Division. – 2009. – C. 2-44.p-12
5. Piccardo, E. (2013). Plurilingualism and curriculum design: Toward a synergetic vision. TESOL Quarterly, 47, 600–614. doi:10.1002/tesq.110
6. Plurilingual or Monolingual? A Mixed Methods Study Investigating Plurilingual Instruction in an EAP Program at a Canadian University Angelica Galante Doctor of Philosophy Department of Curriculum, Teaching and Learning University of Toronto 2018
7. Council of Europe (CoE). (2001). Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment. Cambridge, England: Cambridge University Pressp-168
8. Council of Europe (CoE). (2018). Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment. CEFR – Companion volume
9. Piccardo, Enrica. «Plurilingualism as a catalyst for creativity in superdiverse societies: A systemic analysis.» Frontiers in psychology 8 (2017): 2169.p-2
10. Beacco, Jean-Claude, et al. Guide for the development and implementation of curricula for plurilingual and intercultural education. Council of Europe, 2016.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola hozirgi kunda dolzarb bo'lib borayotgan plurilingval kompetensiya va uning mazmuni to'g'risida bo'lib, uning asosiy jihatlariga to'xtaladi. Plurilingval(ko'p tilli) kompetensiya shaxsning bir nechta tillarda samarali muloqot qilish va turli madaniy kontekstlarda harakat qilish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya ko'pincha til o'rganishga ijobiy munosabat va turli tillar va madaniyatlar bilan muloqot qilishga tayyorlik bilan bog'liq. Umuman olganda, plurilingval(ko'p tilli) kompetensiya bir qator ko'nikmalar, bilim va munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish bugungi globallashtirish dunyoda shaxsiy o'sishni, madaniyatlararo tushunishni va kasbiy imkoniyatlarni oshirishi mumkin.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена плюрилингвальной компетенции и ее содержанию, которая становится актуальной сегодня, и фокусируется на ее основных аспектах. Плюрилингвальная (многоязычная) компетентность означает способность человека эффективно общаться на нескольких языках и действовать в разных культурных контекстах. Эта компетентность часто связана с позитивным отношением к изучению языка и готовностью общаться с представителями разных языков и культур. В целом, плюрилингвальная компетенция включает в себя ряд навыков, знаний и отношений. Развитие этой компетенции может способствовать личностному росту, межкультурному пониманию и профессиональным возможностям в современном глобализованном мире.

SUMMARY

This article is about plurilingual competence and its content, which is becoming relevant today, and focuses on its main aspects. Plurilingual (multilingual) competence refers to the ability of a person to communicate effectively in several languages and act in different cultural contexts. This competence is often associated with a positive attitude towards language learning and a willingness to communicate with different languages and cultures. In general, plurilingual competence includes a range of skills, knowledge and attitudes. Developing this competency can enhance personal growth, cross-cultural understanding, and professional opportunities in today's globalized world.